

## SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMDA BIOINDIVIDUAL FARQLARNI INOBATGA OLİSH MASALALARI

Sultonova Oygul Ismoilovna

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning zamonaviy konsepsiysi, uning asosiy tamoyillari va ayniqsa o‘quvchilarining bioindividual xususiyatlarini hisobga olish zarurati tahlil etilgan. Har bir o‘quvchining genetik, psixofiziologik, temperament va individual o‘rganish uslublariga ko‘ra farq qilishi ularning rivojlanishiga to‘g‘ri pedagogik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada bu farqlarni amaliy ta’lim jarayonida aniqlash va ularga mos strategiyalarni ishlab chiqish to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, bioindividual farqlar, temperament, ta’lim strategiyasi, individual yondashuv, differensial metodlar, o‘quvchi shaxsiyati, yondashuv.

Zamonaviy pedagogikada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nafaqat yondashuv, balki muhim metodologik prinsipga aylangan. Ushbu yondashuvning markazida o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos jihatlari, qobiliyatları, ehtiyojlari, o‘rganish uslublari turadi. Har bir bola biologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos. Ta’limda bu farqlarni inobatga olmaslik, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarishda to‘sinq bo‘lishi mumkin. Ayniqsa bioindividual farqlar — genetik, fiziologik, psixologik omillar — o‘quvchilarining bilim olish sur’ati, uslubi va motivatsiyasiga bevosita ta’sir qiladi.

Bioindividual farqlar tushunchasi va ularning turlari.

Bioindividual farqlar — bu o‘quvchining tabiiy, tug‘ma va individual xususiyatlarini ifodalaydi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Temperament (sangvinik, xolerik, flegmatik, melancholik) – o‘rganish tezligi va emotsiyal barqarorlikka ta’sir qiladi.
- Sensor tizimlar ustuvorligi – vizual, audial, kinestetik uslublar orqali axborotni qabul qilish farqlari.
- Psixofiziologik imkoniyatlar – diqqat, xotira, tezlik, reflekslar, mantiqiy fikrlash darajalari.
- Ijtimoiy va hissiy sezgirlik – jamoada ishlash, o‘z fikrini ifodalash, liderlik yoki izolyatsiyaga moyillik.

Bu farqlarni aniqlash va hisobga olish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda bu farqlarning o‘rni

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deganda, o‘quvchi markazida bo‘lgan, uning shaxsiy rivoji, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga oluvchi tizimli faoliyat tushuniladi. Bunday ta’limda:

- Har bir o‘quvchining o‘rganish uslubi aniqlanadi va mos usullar tanlanadi.
- Mustaqil fikrlashga rag‘batlaniruvchi muhit yaratiladi.
- O‘quvchi o‘z tempida, o‘z kuchi bilan rivojlanish imkoniga ega bo‘ladi.

Bu esa faqatgina umumiylar metodlar bilan emas, balki differensial va individual yondashuvlar asosida amalga oshiriladi.

Pedagog uchun zarur yondashuvlar

O‘qituvchi o‘quvchilarining bioindividual farqlarini hisobga olish uchun quyidagi metodlarni qo‘llashi kerak:

- Diagnostik testlar yordamida o‘quvchilar psixotiplari va o‘rganish uslublarini aniqlash
- Guruhlarga bo‘lib ishslash, topshiriqlarni farqlashtirish
- Mos baholash mezonlarini ishlab chiqish
- Moslashtirilgan o‘quv materiallaridan foydalanish
- Emotsional-intellektual qo‘llab-quvvatlovga asoslangan muloqot o‘rnatish

Bundan tashqari, har bir bolaning ijtimoiy muhitdagi o‘z o‘rnini inobatga olgan holda jamoaviy va individual faoliyatni muvozanatlari rejulashtirish muhim.

Ta’lim texnologiyalari va bioindividual yondashuv

Axborot texnologiyalari, multimedia vositalari va onlayn platformalar o‘quvchilarining individual ehtiyojlariga mos, moslashtirilgan kontentlar yaratishga xizmat qilmoqda. Bunda o‘quvchilarining o‘rganish sur’ati, ustuvor his qilish kanallari va qiziqishlari hisobga olinadi.

Masalan, vizual o‘quvchilar uchun grafik, diagramma va videolavhalar, kinestetik o‘quvchilar uchun interaktiv amaliy topshiriqlar, verbal o‘quvchilar uchun matnli izohlar samarali bo‘ladi.

## XULOSA

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda bioindividual farqlarni e’tiborga olish — bu har bir o‘quvchining imkoniyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan murakkab, ammo samarali jarayondir. O‘qituvchi nafaqat ta’lim mazmunini, balki uslubini ham o‘quvchi ehtiyojlariga moslashtirgandagina bu yondashuv o‘z samarasini beradi. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos, va pedagog bu xoslikni rivojga aylantira olgan taqdirdagina haqiqiy shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ro‘yobga chiqadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain 2nd edition Edition, Benjamin S. Bloom
2. Zunnunov A. Hotamov N. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., 1992